

13

TA'LIM INNOVATSİYASI VA INTEGRATSIYASI



Yanvar-2024

13-son 3-to'plam

TA'LIM INNOVATSIYASI VA INTEGRATSIYASI

Xalqaro ilmiy elektron jurnal

13-SON _ 3-TO'PLAM

Yanvar - 2024



**YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA
XORIJ DAVLATLARI TAJRIBASI**

*Ilmiy rahbar: Boltayeva Sh.B – BuxDU,
“Yashil iqtisodiyot va agrobiznes” kafedrasi katta o’qituvchisi
Tangiribergenova Nafisa -
BuxDU. 3-1AGB-21guruh talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning ahamiyati, yashil iqtisodiyot tarixi va ta’riflari keltirib o’tildi. Rivojlangan mamlakatlarda yashil iqtisodiyot tajribalari o’rganildi.

Kalit so’zlar. Yashil iqtisodiyot, ekotizim, yashil sektor, ekologik toza mahsulot.

Hozirgi glaballashuv jarayonida rivojlangan mamlakatlarning texnologik bazasini sifat jihatdan yangilanishi, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini oshirish bilan birga hayot sifatini va yashash muhitini yaxshilovchi yangi texnologik tuzilmaga modernizatsiya qilingan iqtisodiyotga o’tishni talab qilmoqda. “Yashil iqtisodiyot” o’zgarishlar kelajak avlod hayotiga salbiy ta’sir qilishini oldini olish va ular uchun ham farovon hayot ta’minalash zaruriyatidan kelib chiqmoqda. Agarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy munosabatlarning tabiatga salbiy ta’siri oldi olinmasa, u nafaqat kelajak avlod hayotiga, balki jamiyatning hozirgi sharoitiga ham jiddiy salbiy ta’sir ko’rsatadi. Va aksincha, insoniyatning atrof tabiiy muhitga munosabati o’zgarsa, ularda avvalo, ekologik madaniyat rivojlansa, ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatish va mahsulotni iste’mol qilish bilan munosabatlar “yashillashtirish” sa’y-harakatlariga moslashsa, albatta, biz va kelajak avlod hayotining ijobjiy tarafga o’zgaradi. Ya’ni “Yashil” iqtisodiyot aholi farovonligini ta’minalashdagi va iqtisodiy o’sishda kabi barqaror rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O’zbekiston so’nggi yillarda yashil iqtisodiyot va ekologiya sohasiga katta e’tibor qaratmoqda. “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini doirasida mamlakatimizda ilm-fan, innovatsiyalar, muhandislik va inshootlarni rivojlantirish maqsadida ko’plab loyihalar amalga oshirilmoqda.

“Yashil iqtisodiyot” tushunchasiga to’xtalib o’tadigan bo’lsak, ilmiy tadqiqotlarda “Yashil iqtisodiyot” tushunchasi ilk marotaba 1989-yilda qo’llanilgan bo’lsada, uning mohiyati hozirga qadar turlicha talqin etiladi. Ayrim manbalarda “Yashil iqtisodiyot” mamlakat tabiatini yaxshilashga ko’maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq qilinsa, ba’zi tadqiqotlarda “Yashil iqtisodiyot” tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o’rganiladi, uchinchi guruh tadqiqotlarda esa “Yashil iqtisodiyot” – bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo’naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga

o'tish, uning asosini sof yoki "Yashil" texnologiyalar tashkil etadi deyiladi. "Yashil iqtisodiyot" tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan to'liq ta'rifi BMTning Atrof-muhiti muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, "Yashil iqtisodiyot" – bu "odamlar farovonligi va ijtimoiy tengligning yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikkarni sezilarli darajada kamaytirish"ga olib keluvchi iqtisodiyotdir deyilgan. UNEP tadqiqotlariga ko'ra jahon tabiiy resurslaridan oqilona va samarali foydalanish kelgusi avlod uchun 2050-yilga qadar har yili 2 trln dollar foya olish imkonini yaratadi. Bu davrda dunyo aholisi soni 28%ga, aholi jon boshiga resurslardan foydalanish darajasi esa 71%ga ortishi bashorat qilinmoqda.

Bugungi kunda dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga o'tish keng rivojangan. Misol qilib aytadigan bo'lsak, Shvetsiya ekologik investitsiyalar sohasida qayta tiklanadigan energiya va mahalliy yoqilg'i manbalaridan foydalanish bo'yicha jahonda yetakchi mamlakat hisoblanadi. YEL universiteti olimlari ishlab chiqgan "yashil" mamlakatlar reytingda 1-o'rinni egallagan. Shvetsiyada maishiy chiqindilarning 96 foizi yo'q qilinadi. Bu tabiiyki dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishda uy egalariga soliq imtiyozlari beriladi. Shuningdek, avtomobil uchun ekologik toza yoqilg`idan foydalanadigan avtomobil egalari uchun soliq ham kamaytiriladi. Bundan tashqari, shaharda bepul mashina joylari ham taklif etiladi. Mamlakatda bunday avtomobillarning ulushi yildan yilga oshib bormoqda. Bular, albatta, mamlakat ekologiyasiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatuvchi qo'shimcha chora-tadbirlar guruhiga kiradi.

Germaniya iqtisodiyotning barcha sohalariga yashil tamoyillarni joriy etishda chiqindisiz ishlab chiqarish siklini yaratgan ushbu sohadagi ilg`or davlatlardan biridir. Germaniya ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarni eksport qilishda (xususan, iqlimni tejovchi uskunalardagi jahon savdosining 12% dan ortig`i) dunyonda yetakchi hisoblanadi. Ushbu mamlakatda chiqindilarni qayta ishlash hamda ulardan qayta foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mamlakatning ba'zi joylaridagi supermarketlarida maxsus plastmassa idishlarnini qabul qiluvchi apparatlar mavjud. Bu texnologiyaning afzalligi atrof-muhitning ifloslanishini oldini oladi va uni qayta ishlash imkonini beradi. Germaniyada patentli texnologiyalarning 23 foizi atrof muhit sohasiga to`g`ri keladi va shamol, quyosh energetikasi sohasidagi kompaniyalarning 30 foizdan ortig`i nemis kompaniyalariga tegishli. Yashil sektorda, ya`ni atrof-muhit va iqlimni muhofaza qilish bilan bog`liq bo`lgan sohalarda (energiya, transport, qayta ishlash, chiqindilarni yo'q qilish va boshqalar) nemis korxonalaridagi faoliyat yuritayotgan ishchilar soni, taxminan 2 million kishini yoki jami iqtisodiy faol aholining 4.5 foizini tashkil qiladi. Bugungi kunda bu ko'rsatkich o'sish tendensiyasiga ega.

Ekologik investitsiyalar uchun moliyaviy imtiyozlar bo`yicha Gollandiya tajribasiga qaraydigan bo`lsak, MIA va VAMIL - Gollandiya kompaniyalari tomonidan ekologik texnologiyalardan foydalanishga rag`batlantirishning ikki alohida choralar sifatida qaraladi. MIA va VAMIL Gollandiyada alohida-alohida rag`batlantiruvchi choralar hisoblansada, bu chora-tadbirlar juda ko`p o`xshashliklarga ega. VAMIL kompaniyalarga atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligining rasmiy ro`yxatida belgilangan texnologiyalarning (uning qiymatining 75 foizigacha) amortizatsiya davrini mustaqil ravishda belgilashga imkon beradi. Shuning uchun VAMIL tadbirkorlarga texnologiyalarni tezkor tarzda amortizatsiya qilish yo`li bilan moliyaviy afzallikka ega bo`lishini ta`minlaydi. Shu bilan birga VAMIL usulidan foydalanish beradigan imkoniyatni aniq belgilash qiyin, chunki bu tadbirkorlarning VAMIL da qatnashish uchun ariza berishidagi aniq sharoitlarga bog`liq. Bu imkoniyat odatda amalga oshirilgan kapital qo`yilmalarining 3-8% ga teng deb baholanadi.

Yaponiyada “mottainai” harakati mavjud bo`lib, tarjimasi “uni to`liq ishlatmaguningizcha tashlamang” degan ma’noni anglatadi. Bir marta ishlatiladigan idish va paketlardan voz kechish bo`yicha targ’ibot allaqachon hukumat darajasiga ko’tarilgan. Hukumat bir martalik mahsulotlardan butunlay voz kechish g’oyasini Kamikatsu shahrida amalda qo’llashni yo’lga qo’ydi. 2003-yilda munitsipalitet bir martalik tovarlar sonini kamaytirishga qaratilgan maxsus tarkibiy islohotni faol ravishda davom ettira boshlagan. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad shaharni butunlay chiqindidan holi qilish edi. Bugungi kunda Kamikatsu aholisining 60 foizi qayta foydalanish mumkin bo’lgan mahsulotlarni tanlamoqda, bu esa chiqindilar miqdorini sezilarli darajada kamaytirayapti.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, ko’pgina rivojlangan mamlakatlar qo’llayotgan yashil iqtisodiyotga o’tish tajribalarini o’rganib mamlakatimizda qo’llash suv resurslaridan nooqilona foydalanish, havoning ifloslanishi, o’rmonlarning qisqarishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi va iqlim o’zgarishi kabi ekologik muammolarni hal etishda yordam beradi. O’ylaymanki, bu yo’nalishni yanada rivojlantirish, yashil iqtisodiyot ishlash tizimini takomillashtirish orqali mamlakatimiz ekologiya va iqtisodiyot sohasida yanada yuksak natijalarni zabit etishi mumkin. Bir so’z bilan aytganda, O’zbekistonda “Yashil iqtisodiyot” mavzusi davlat va xalq faoliyati sohasida iqtisodiy saviyani ta’minlab, har bir insonning yuksak fikrda bo’lishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Bu konsepsiya mamlakatni iqtisodiyot va ekologiya sohasida rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Economic and Social Survey 2011: The Great Green Technological Transformation / Department of Economic and Social Affairs of the United Nations Secretariat (DESA). - New York: United Nations, 2011. - E/2011/50/Rev. 1 ST/ESA/333.

2. Sindarovich, U. A., Dilnoza, Q., and Fayzullo o'g'li, B. A. (2023). National Traditions of Interior Architecture of Buildings of Wedding Houses. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 4(3), 1-7.
3. Порфирий Б.П «Зеленая» экономики: реалии перспективы и переделы роста –М.Карнеги. 2013
- 4.Болтаева, Шахноз. "WASTE PROBLEM, SECOND LIFE OF WA DEVELOPMENT OF AGRICULTURE ROLE OF MARKETING." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*) 45.45 (2024).
5. Болтаева, Шахноз. "Modern Directions of Small Business and Entrepreneurship Development in Uzbekistan." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*) 20.20 (2022).
- 6.Болтаева, Шахноз. "The role of Agrokultural marketing in the development of Uzbekistan." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*) 1.1 (2020).

25	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TA'LIM – TARBIYASINI TASHKIL ETISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	109
26	MAKTABGACHA KATTA VA TAYYORLOV GURUH BOLALARIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	114
27	THE ROLE OF ECONOMICS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING	118
28	FACTORS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF EXPORT POTENTIAL OF AGRICULTURAL PRODUCTS	123
29	AKSELERATSIYA VA UNING SABLARI	128
30	DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZM – TARQQIYOT DUSHMANI	131
31	O'ZBEKİSTON İQTİSODİYTİGA XORİJIY INVESTİTSİYALARNI JALB ETİSHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	137
32	INVESTİTSİON MUHİT JOZIBADORLIGINI ANIQLASHNING USLUBIY MASALALARI	144
33	HUDUDIY POLİKLİNİKALARDA AHOLINI TIBBIY KORİKDAN O'TKAZISHNING İQTİSODİY JİHATLARI	151
34	İNGLİZ TİLİNİ O'QITISHDA GRAMMATİKANING TUTGAN O'RNI	155
35	ZAMONAVİY O'QİTUVCHI - DAVR TALABI	158
36	THE NATIONAL CULTURAL FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGE	165
37	OLUTIONS IN ENGLISH TRANSLATION: ENHANCING CROSS-LINGUISTIC COMMUNICATION	167
38	TEACHING ENGLISH LITERATURE	169
39	YASHIL İQTİSODİYOTNI RIVOJLANТИRISHDA XORIJ DAVLATLARI TAJRIBASI	172
40	“ТАБИЙ ЯЙЛОВЛАР ЎСИМЛИКЛАРИНИНГ МОНИТОРИНГИНИ ЙОРИТИШДА МОНИТОРИНГ ПУНКЛариНИ ТАНЛАШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ”	176

Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi

Eslatma!— Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi jurnalı ma’naviy – ma’rifiy ilmiy ommabop jurnal, o’zbek, rus va ingliz tillarida bir oyda bir marotaba elektron tarzda internet tarmog‘ida tarqatiladi va nufuzli xalqaro bazalarda indekslanadi.

Bosh muharrir:
Saidova Mohinur Jonpo’latovna

Mas’ul kotib:
Vahobov Adxamjon Bahodirovich

Dizayn muharriri:
Xoliqov Tohirjon Shavkatjon o’g’li

— Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi jurnalı - ma’naviy – ma’rifiy ilmiy ommabop jurnal / 2023 yil